

**BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI****Mametova Qunduz Amatovna***Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l  
tumani 43-maktab psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Zo‘ravonlikning turlari, kelib chiqish omillari hamda uning bola shaxsiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim muassasalari va oilada zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** zo‘ravonlik, bola huquqlari, profilaktika, pedagogik muhit, psixologik himoya, ijtimoiy xavfsizlik, stress, kamsitish, maktab psixologi, emotsional qo‘llab-quvvatlash.

**KIRISH**

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik jamiyatning eng jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri hisoblanadi. U jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy shakllarda namoyon bo‘lib, bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi. Zo‘ravonlik nafaqat individual darajada, balki jamiyatning umumiy psixologik barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zo‘ravonlikning kelib chiqishida bir qator omillar mavjud. Oilaviy muhitdagi nizolar, ota-onalarning noto‘g‘ri tarbiya usullari, ijtimoiy stress, iqtisodiy muammolar va psixologik savodxonlikning pastligi asosiy sabablar qatoriga kiradi. Shuningdek, maktabdagi salbiy muhit, tengdoshlar o‘rtasidagi kamsitish va zo‘ravonlik holatlari ham bu muammoni kuchaytiradi. Pedagogik jihatdan zo‘ravonlikning oldini olishda ijobiy ta’lim muhiti yaratish muhimdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga nisbatan hurmat, adolat va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan yondashuvni qo‘llashi lozim. Bolani kamsitish, doimiy tanqid qilish yoki befarqlik uning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik yondashuvda esa bolaning emotsional holatini tushunish, uning ehtiyojlarini aniqlash va xavfsiz psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Maktab psixologi tomonidan o‘tkaziladigan diagnostika, individual maslahatlar va guruhviy treninglar zo‘ravonlikning erta aniqlanishi va oldini olishga yordam beradi.

Zo‘ravonlik profilaktikasida maktab, oila va jamiyat hamkorligi asosiy o‘rin tutadi. Ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyasini oshirish, pedagoglarning psixologik bilimlarini rivojlantirish va bolalarda huquqiy ongini shakllantirish muhim profilaktik choralardir. Shuningdek, empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy ko‘nikmalarni

rivojlantirishga qaratilgan treninglar bolalarda zo‘ravonlikka qarshi immunitetni shakllantiradi. O‘quvchilarda o‘zini himoya qilish, muammoni to‘g‘ri ifodalash va yordam so‘rash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhimdir. Zamonaviy axborot muhitida internetdagi zo‘ravonlik (kiberbulling) ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shu sababli raqamli savodxonlikni oshirish va internetdan xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur.

Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik keng va murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo bo‘lib, u faqat bevosita jinsiy aloqa harakatlari bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu tushuncha bolalarga nisbatan sodir etiladigan axloqsiz xatti-harakatlar, ularni jinsiy ekspluatatsiya qilish maqsadida jalb etish, shuningdek, jinsiy mazmundagi turli zo‘ravonlik shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Bunday jinoyatlar nafaqat jismoniy, balki bolalarning ruhiy va emotsional rivojlanishiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi har uch mamlakatdan birida ayollarning kamida besh foizi bolalik davrida jinsiy zo‘ravonlikka uchraganini bildiradi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmagan qiz bolalarning taxminan har to‘qqizinchisi, o‘g‘il bolalarning esa har yigirmadan biri bolalik davrida jinsiy zo‘ravonlikka duch keladi. 18 yoshgacha bo‘lgan jabrlanuvchilarning katta qismini, ya’ni qariyb 82 foizini qizlar tashkil etadi. Ayniqsa 16–19 yosh oralig‘idagi qizlar jinsiy zo‘ravonlikka uchrash xavfi jihatidan boshqa yosh guruhlariga nisbatan to‘rt baravar ko‘proq xavf ostida ekani qayd etilgan.

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan turli xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlar jinsiy zo‘ravonlik holatlarining ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Ayrim hududlarda bu boradagi rasmiy murojaatlar va qayd etilgan holatlar 87 foizgacha oshgani kuzatilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, bolalar onlayn muhitda ham xavf ostida qolmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, internetda “grooming”, ya’ni bolani ishonchga kiritib, uni ekspluatatsiyaga tayyorlash jarayoni juda qisqa vaqt ichida — 19 soniyadan 45 daqiqagacha bo‘lgan oraliqda sodir bo‘lishi mumkin. Bu esa raqamli muhitdagi xavf darajasining nihoyatda yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, jinoyatchilarning katta qismi jabrlanuvchi bolaga oldindan tanish shaxslar ekanligi ham aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich taxminan 60 foizni tashkil etadi. Bu holat zo‘ravonlik ko‘pincha yaqin muhitda — oila a’zolari, tanishlar yoki ishonchli shaxslar doirasida sodir etilishini ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda respondentlarning yarmidan ko‘prog‘i bolalik davrida onlayn jinsiy zo‘ravonlik yoki unga yaqin holatlarga duch kelganini bildirgan. Bundan tashqari, internet tarmoqlarida jinsiy mazmundagi zararli kontentning keng tarqalishi ham bolalar uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Masalan, ayrim kontentlar qisqa vaqt ichida millionlab ko‘rishlarga ega bo‘lishi, bu muammoning global miqyosda kengayib borayotganini anglatadi. Ayrim so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, respondentlarning 54 foizi ilk bor 13 yosh yoki undan

kichik davrda pornografik materiallarga duch kelganini bildirgan. So‘nggi yillarda esa onlayn grooming bilan bog‘liq jinoyatlar 80 foizgacha oshgani qayd etilmoqda.

Ushbu raqamlar jinsiy zo‘ravonlikning nafaqat an‘anaviy, balki raqamli shakllarda ham kengayib borayotganini, uning shakllari murakkablashayotganini ko‘rsatadi. Eng muhimi, bu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchilarning asosiy qismini voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Bu esa muammoning o‘ta jiddiy ijtimoiy xavf sifatida baholanishini talab qiladi. Shu sababli, jinsiy zo‘ravonlikning oldini olish, uni aniqlash va unga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy va institutsional mexanizmlarni yanada kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari shaxsga nafaqat jismoniy zarar yetkazadi, balki chuqur ruhiy jarohatlar ham qoldiradi. Bunday holatlarga duch kelgan bolalarda uyat hissi, o‘zini jamiyatdan chetlashtirish, ijtimoiy aloqalardan qochish, shuningdek, o‘zini aybdor deb his qilish kabi psixologik muammolar yuzaga keladi. Ayrim hollarda jabrlanuvchilar qayta travmatizatsiyaga uchrashi, ya‘ni jarohatning takroran kuchayishi holatlari ham kuzatiladi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan muloqot jarayonida ham ayrim hollarda ikkilamchi viktimizatsiya holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Eng muhim muammolardan biri shundaki, ushbu turdagi jinoyatlar ko‘pincha yashirin (latent) holatda qolib ketadi. Jabrlanuvchilarning qo‘rquv, uyat yoki bosim sababli murojaat qilmasligi natijasida real statistik ko‘rsatkichlar haqiqiy holatni to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli mavjud ma‘lumotlar jinsiy zo‘ravonlikning asl miqyosini to‘liq ifoda etmaydi, deb xulosa qilish mumkin.

Xalqaro huquqiy asoslarda ham bolalarning alohida himoyaga muhtoj ekani alohida ta‘kidlanadi. “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga muvofiq, bola tug‘ilgunga qadar va tug‘ilgandan keyin ham har tomonlama huquqiy himoya bilan ta‘minlanishi lozim. Konvensiyaning 19-moddasida davlatlar bolalarni har qanday zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, beparvolik va shafqatsiz muomaladan himoya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha qonuniy, ma‘muriy, ijtimoiy va tarbiyaviy choralarni ko‘rishi shartligi belgilangan. Bu choralar zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, oldini olish, xabar berish, tekshirish hamda zarur hollarda sud jarayonlarini amalga oshirishni ham o‘z ichiga oladi.

Milliy qonunchilikda ham bolalarni himoya qilishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy xarakterdagi jinoyatlar, pornografik materiallar bilan bog‘liq noqonuniy harakatlar, shuningdek, ekspluatatsiya bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirilgan. Ayrim hollarda jinoyat to‘xtatilgan taqdirda ham jazo yengillashtirilmasligi, shuningdek, shartli ozod qilish kabi yengilliklarning qo‘llanilmasligi belgilangan. Bu esa bunday jinoyatlarga nisbatan davlat siyosatining qat’iy ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, 2024-yilda qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, bolalarga nisbatan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo‘ravonlik, beparvolik, ekspluatatsiya hamda ta‘qib (bullying) kabi holatlar qat‘iyan taqiqlangan. Qonunga asosan, zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilish uchun himoya orderi instituti joriy etilgan bo‘lib, u ichki ishlar organlari tomonidan beriladi va belgilangan muddat davomida amal qiladi.

Shuningdek, bolalarni himoya qilish sohasida maxsus vakolatli organ sifatida ijtimoiy himoya tizimi faoliyat yuritadi. Ushbu tizim jabrlanuvchilarga psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, maslahat berish hamda zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, butun mamlakat bo‘ylab tunu kun ishlaydigan ishonch telefonlari tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan.

Umuman olganda, bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik muammosi bugungi kunda nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar bu masalani faqat jinoyat sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniyat va bolaga bo‘lgan munosabat tizimi bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida tahlil qilish zarurligini ta‘kidlaydilar. Jamiyatda bolalarning teng huquqli va himoyalangan shaxs sifatidagi o‘rnini mustahkamlash zo‘ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish kompleks pedagogik va psixologik yondashuvni talab etadi. Ijobiy ta‘lim muhiti yaratish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash hamda huquqiy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish zo‘ravonlikning oldini olishda eng samarali yo‘llardan biridir. Bu esa bolalarning sog‘lom, xavfsiz va barkamol shaxs sifatida rivojlanishini ta‘minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma‘qullangan.
2. “Bola huquqlarining kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 18-oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 30-noyabrda ma‘qullangan.
3. O‘RQ-829. Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 23-martda qabul qilingan.
4. Ziyo.net